



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-iyul

340-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyundagi PQ-233-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 307-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyundagi PQ-233-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 307-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, o‘rtacha havo harorati har yili ko‘tarilayotganligi oqibatida suv tanqisligi, sho‘rlanish va tuproq degradatsiyasining oldini olish, qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish hamda uning iqlimga bo‘lgan salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 307-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash doirasida sohaning iqlim o‘zgarishiga moslashishi va uning iqlimga salbiy ta‘sirini yumshatish, qurg‘oqchilik va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish, yaylovlar bioxilmaxilligini saqlash (qayta tiklash), yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish hamda sohaga keng joriy qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga Qishloq xo‘jaligi vazirligi mas‘ul etib belgilanganligi;

Qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish va sohaning iqlimga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha milliy dastur (keyingi o‘rinlarda - Milliy dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Milliy dasturni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida:

iqlim o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan hududlarda amalga oshirilayotgan choratadbirlarni samarali tashkil etish;

iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro grant loyihalari doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish;

iqlim o'zgarishiga bog'liq bo'lgan tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqish;

ayyovlardan samarali foydalanishni hamda ularni muhofaza qilishni tashkil etish belgilanganligi;

Milliy dastur ijrosini muvofiqlashtiruvchi idoralararo ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Quyidagilar:

qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtiruvchilarni favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfi (jumladan, haroratning anomal o'zgarishi, sel oqimlari va toshqinlari, do'l yog'ishi va qurg'oqchilik) hamda chigirtka va boshqa zararkunandalar bilan bog'liq, favqulodda vaziyatlardan erta ogohlantirish tizimini ishlab chiqish;

xalqaro moliya institutlarining kredit va grant mablag'lari, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish loyihalarini amalga oshirish hamda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

dehqon, fermer va agroklastlar xodimlarining ekologik madaniyatini oshirish, agrar sohani iqlim o'zgarishiga moslashtirish bo'yicha bilim darajasi va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish;

qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi va uning oqibatlaridan keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun ilmiy-ommabop, tahliliy materiallar tayyorlash, sohadagi tadqiqotlar natijalarini qishloq, xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar orasida keng ommalashtirish choralari ko'rish, Milliy dastur ijrosini muvofiqlashtiruvchi idoralararo ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda:

a) Yevropa Ittifoqining "O'zbekiston Respublikasi qishloq hududlarida barqaror turmush tarzi hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini rivojlantirishda budjet ko'magi" dasturi doirasida jalb qilinadigan 6 million yevro grant mablag'larini quyidagilarga yo'naltirish choralari ko'rishi, bunda:

respublikaning turli iqlim sharoitlariga ega hududlarida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari, kichik va o'rta biznes sub'ektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiya va amaliyotlar joriy etilishini rag'batlantirishga;

qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar va xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishga;

Milliy dastur doirasida ta'lim va agromaslahat tadbirlarini moliyalashtirishga, jumladan, loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etgan va yuqori natijaga erishgan xorijiy mutaxassislar, konsultant va mahalliy ekspertlarni rag'batlantirishga;

qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari samaradorligi va natijadorligini benefitsiarlar kesimida monitoring qilish va baholash tizimini yo'lga qo'yish;

b) Global ekologik jamg'armadan jalb etiladigan 10 million AQSh dollari quyidagilarni o'z ichiga oluvchi grant loyihalarini samarali amalga oshirishga:

iqlim o'zgarishiga moslashish, yashil hududlarni kengaytirish, tuproq, va yaylov yerlari degradatsiyasining oldini olish, xalqaro tajribalar asosida yerga minimal ishlov berish (min-tillage), shuningdek, yerni ag'darmasdan ekish (no-tillage) usullaridan foydalangan holda ekin parvarishini yo'lga qo'yish hamda yangi resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun - 4 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar yo'naltirilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlarga 3-ilovaga muvofiq, o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi (J.Fayzimuxammedov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Abdusalomov), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (N.Kaimov) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

2025-yil mart oyiga qadar viloyatda tanlangan hududlarda kam daromadli 60 ta xonadonlarni aniqlab ro'yxatini shakllantirish va ushbu xonadonlarda issiqxona tashkil qilish;

2025-yil avgust oyiga qadar loyiha doirasida aholiga doimiy ko'chat yetishtirib berish uchun ko'chatxonalarni tashkil qilish choralarini ko'rish;

Ekologiya, atrof-muhitni muxofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (A.Jalilov), Pop tumani hokimligi (A.Sultanov)larga tumanda o'rmonlarni kengaytirish maqsadida:

2024-yil noyabr oyiga qadar yong'oq, mevali va o'tinbop tez o'suvchi daraxtlar plantatsiyalarini kengaytirish takliflarini ishlab chiqish;

2025-yil sentabr oyiga qadar o'rmonlarni barqaror boshqarish tizimiga jamoatchilik asosida aholini jalb qilib, bandligini ta'minlash, hududda yashil qoplamali maydonlarni kengaytirish namunaviy loyihalarini amalga oshirish vazifalari yuklangan;

Quyidagilar:

a) Qishloq xo'jaligi sohasini iqlim o'zgarishiga moslashtirish hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tadbirlari uchun:

BMTning Yashil iqlim jag'marmasi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi amaliyotlarini kengaytirish va agrar sohaning unga bo'lgan ta'sirini yumshatish" dasturi doirasida 200 million AQSh dollari miqdorida;

Yevropa Ittifoqining 27 million yevro, Global ekologik jamg'armasining 10 million AQSh dollari miqdorida;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning “Orolbo‘yi mintaqasida ekologik barqarorlikka qaratilgan rivojlanish” loyihasining 12 million yevro miqdorida;

Global ekologik jamg‘arma hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq loyihalar uchun 25 million AQSh dollari miqdorida grant mablag‘lari jalb qilish bo‘yicha bitimlar imzolanganligi va mazkur grant mablag‘larining yo‘naltirilishi;

b) daraxtzorlardan iborat landshaftlarni tiklash va boshqarishga Jahon banki ishtirokida “O‘zbekistonda barqaror o‘rmon landshaftlarini tiklash” loyihasi doirasida 116,5 million AQSh dollari miqdorida imtiyozli qarz mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha bitim imzolanganligi va yo‘naltirilishi;

v) 2024-yil uchun Davlat budjeti parametrlarida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlar uchun 100 milliard so‘m hamda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish uchun 40 milliard so‘m mablag‘ ajratilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (A.Jalilov) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish hamda himoya o‘rmonlari (ihota) barpo etish doirasida:

cho‘l, tog‘li va tog‘ oldi hududlarda cho‘llanish va qum ko‘chishi, tuproqning suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o‘rmonlari (ihota) barpo etish choralari ko‘rsin;

dala chetlari, yaylovlar va ochiq yer maydonlarini madaniy ekinlar, butalar, galofitlar va cho‘l o‘simliklari bilan qoplashning foydali tomonlari to‘g‘risida tashabbuskorlarga ko‘rgazmali seminarlar tashkil qilish;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (A.Jalilov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Abdusalomov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Z.Ikramov), tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

iqlim o‘zgarishiga moslashish, yashil hududlarni kengaytirish, tuproq, va yaylov yerlari degradatsiyasining oldini olish, ochiq yaylovlar, dala chetlari, bo‘sh turgan ochiq yer maydonlari (ochiq o‘rmon yerlari)da daraxtlar, ko‘p yillik butalar ekish bo‘yicha joylarda seminar-treninglar o‘tkazilishini ta‘minlasin;

“Hap bir fuqaro uchun - bir daraxt” tamoyili asosida ish tashkil etib, uni viloyatda ommalashtirish choralari ko‘rish topshirilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Boylarov hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev